

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ped48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

---

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**SULTONOV BAHODIR FAZILOVICH**

**SIMULYATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI BO'LAJAK  
MUTAXASSISLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI  
SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.05 – Professional ta'lim nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctoral of Philosophy (PhD) on  
Psychological Sciences**

**Sultanov Bahodir Fazilovich**

Simulyatsion ta'lim texnologiyalari orqali bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasi .....

**Султонов Баходир Фазилович**

Методика формирования профессиональной компетентности будущих специалистов посредством симуляционных образовательных технологий .....

**Sultanov Bahodir Fazilovich**

Methods of formation of professional competence of future specialists through simulation educational technologies .....

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of publications

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ped48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**SULTONOV BAHODIR FAZILOVICH**

**SIMULYATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI BO'LAJAK  
MUTAXASSISLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI  
SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.05 – Professional ta'lim nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida 2023.3.PhD/Ped5259 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Professional ta'limni rivojlantirish institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.ipitvet.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xudayberdiyev Zayniddin Yavkachevich**  
iqtisod fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Olimov Qaxramon Tanzilovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Beknazarova Saida Safibullayevna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Professional ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped48.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "\_\_\_\_" soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy. Tel.: (71) 227 19 24, E-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Professional ta'limni rivojlantirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy. Tel.: (71) 227 19 24).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2024 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli reestr bayonnomasi)

**R.H.Djurayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., akademik

**S.Y.Ashurova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.d., professor

**X.Sh.Kadirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

## **Kirish (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Xalqaro maydonda professional ta'lim tizimi oldida umumiy va kasbiy kompetentligi darajasi yuqori bo'lgan, kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyor yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash masalasi turibdi, bu nafaqat kasbiy bilim, ko'nikma, malaka, tajriba va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatning darajasi, balki ularni kasbiy faoliyatda amalga oshirishga tayyorlik darajasi va qobiliyati bilan belgilanmoqda. Bunda, professional ta'lim sifatini ta'minlashda yangicha yondashuvlarga, kompetensiyaga asoslangan yangi ta'lim dasturlarini yaratishga, ta'lim texnologiyalarini yangi shakllarini tatbiq etishga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasini va traektoriyasini o'zgartirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish kontekstida simulyatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish va takomillashtirish, zamonaviy o'qitish nazariyasini ishlab chiqish yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda kasbiy muhitni imitatsiya qilish sharoitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning yaxlitligi va sifatini ta'minlaydigan o'quv-simulyatsion ta'lim muhitini o'rganish muhim hisoblanadi. Bunda, ta'lim mazmuni va ishlab chiqarish munosabatlaridagi o'zgarishlar, texnologik jarayonlarni boshqarishga qodir bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga qo'yilayotgan talablar, xususan, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini va kasbiy sifatlarini mehnat bozori talablari asosida kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash dolzarblik kasb etmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda professional ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha zamonaviy ta'lim shakllarini, xususan dual ta'limni, simulyatsion metod va vositalarni joriy etishga hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini takomillashtirishga katta e'tibor qaratildi. Bunda, «Ilg'or mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalarining tajribasini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish va uning mazmunini doimiy ravishda yangilab borish»<sup>1</sup> vazifalari belgilangan. Shu bois, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatni imitatsiya qiluvchi sharoitlarda amaliy faoliyatga tayyorlashning yaxlitligi va sifatini ta'minlaydigan o'quv-simulyatsion ta'lim muhitini yaratish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637 sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 4.03.2017 yildagi PQ-2829-son.

tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7-avgustdagi 466-sonli "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rgananlik darajasi.** Professional ta'limni shakllanishi va rivojlanishi, bo'lajak mutaxassislarni professional-pedagogik faoliyatgatayyorlash muammolari R.X. Djurayev, U.I. Inoyatov, Z.K. Ismoilova, Sh.E. Qurbonov, U.N. Nishonaliyev, Q.T. Olimov, X.F.Rashidov, O.X.To'raqulov, J.A. Xamidov, D.O.Himmataliyev, A.R.Xo'jaboyev, D.D.Sharipova va boshqa olimlari tomonidan o'rganilgan.

Professional ta'limda ta'lim va tarbiyaning uslubiy jihatlari A.A. Alimova, S.A.Aliqulova, G.M.Anarqulova, S.Y.Ashurova, N.N.Karimova, B.S. Nuriddinova, D.R.Rahmatullayeva, D.M.Fayzullayeva va boshqalarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan.

O'zbekistonda kompetensiya va kompetentlikni shakllantirish muammolari I.N. Ilhamov, O.A. Quysinov, N.A.Muslimov, E.R.Najmiddinova, J.R.Turmatov, K.T.Umataliyeva, M.B.O'razova, Sh.S.Sharipov, I.A.Eshmamatova va boshqalarning ishlarida o'z ifodasini topgan.

MDH mamlakatlari olimlari A.A.Verbitskiy, T.A.Jukova, O.A.Zaxarova, E.F. Zeer, I.A.Zimnaya, O.N.Lebedev, A.M.Mityayeva, A.Y.Polenova, A.E.Raximova, A.P.Sadoxina, A.V.Xutorskiy, E.M.Sheglova va boshqalarning tadqiqotlari ta'limda kompetentlikka asoslangan yondashuv muammosiga bag'ishlangan bo'lib, ular kadrlar tayyorlashga yondashuvlarning o'zgarishi sharoitida ta'lim mazmunini yangilash muammolarini hal qilishga qaratilgan.

Bo'lajak mutaxassisni kasbiy tayyorlash muammolari V.I.Bidenko, G.D. Baubekova, E.P. Belozersev, N.A. Gushina, N.A. Lukyanova, V.G. Pervutinskiy, M.D. Shchelkunov va boshqalarning tadqiqotlarida yoritilgan. Mazkur tadqiqotlar kasbiy tayyorgarlikning jihatlaridan biri sifatida oquvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bogligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Professional ta'limni rivojlantirish institutining IL-5821081323-"Dual ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish" (2023–2025-yillar) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** simulyatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish kontekstida simulyatsion ta'lim texnologiyalarining mazmuni va tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarini hamda konsentrizm tamoyilini qo'llash vositasida aniq vaziyatlarni imitatsiyasiga qaratilgan simulyatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligini asoslab berish;

kasbiy muhitni imitatsiya qilish sharoitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning yaxlitligi va sifatini ta'minlaydigan o'quv-simulyatsion ta'lim muhitini tashkiliy pedagogik sharoitlarini aniqlash;

simulyatsiya ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning tarkibiy va funksional modelini takomillashtirish;

kasbiy kompetentlikni rivojlantirish hamda kompetensiyalarni baholash metodikasini o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olish darajasiga ko'ra belgilash hamda Case method, Fabula, Mind map innovatsion texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash asosida takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida professional ta'lim muassasalarida oquvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish shakllantirish jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmetini** simulyatsion ta'lim texnologiyalari orqali oquvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning metodi, shakl va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda falsafiy, psixologik-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish usullari va shaxsni har tomonlama va barkamol rivojlantirish muammosiga yondashuvlar, qiyosiy-tanqidiy tahlil, pedagogik kuzatish, sotsiometrik usullar (suhbat, anketalashtirish, test, intervyu), pedagogik tajriba, monitoring usullari, matematik-statistik tahlil, natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kontekstli ta'lim nazariyasi asosida o'quv va kognitiv faoliyatni kvazi-professional muhitda kasbiy faoliyatga aylantirishda hamda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda muammoli topshiriqlar va muammoli vaziyatlarni mustaqil ravishda hal etishda konsentrizm tamoyilini qo'llash vositasida aniq vaziyatlarni imitatsiyasiga qaratilgan simulyatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi asoslangan;

kasbiy muhitni imitatsiya qilish sharoitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning yaxlitligi va sifatini ta'minlaydigan o'quv-simulyatsion ta'lim muhitini kasbiy muammolar echimini topishda amaliy yo'nalganlikka ustuvorlik berish asosida yaratish orqali simulyatsion ta'lim texnologiyasini samarali amalga oshirishda tizimli, faoliyatga asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar va tashkiliy pedagogik sharoitlari aniqlashtirilgan;

kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonining tarkibiy funksional modeli “Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi” fani mazmuniga atrof-muhit muammolari, texnogen ofatlar, texnogen falokatlarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘qitish mazmuni, vaqt taqsimoti va natijadorlik omillari asosida ishlab chiqish orqali singdirish, korxonalaridagi baxsiz hodisalar, o‘zi va boshqalar uchun xavfsiz ish sharoitlarini yaratishga o‘rgatishda kvazi professional ta‘lim muhitini kiritish orqali takomillashtirilgan;

kasbiy kompetentlikni rivojlantirish hamda kompetensiyalarni baholash metodikasi motivatsion-maqсадli, kognitiv, faoliyatga asoslangan va refleksiv baholash kabi tarkibiy qismlarini professional ta‘limda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llay olish darajasiga ko‘ra belgilash hamda Case method, Fabula, Mind map innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayonida samarali qo‘llash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Qurilish sanoatida inson salomatligi va xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha tavsiyalar” va “Kasb-hunar ta‘limida simulyatsiya ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish” o‘quv va uslubiy qo‘llanmalari ishlab chiqilgan;

o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish darajasini baholash uchun diagnostik materiallar ishlab chiqilgan;

o‘quvchilarning ekstremal ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan “Mehnatni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi” dasturiy ta‘minot ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuvlar, usullar va nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-siniv ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kasb-hunar ta‘limi nazariyasi va metodologiyasini, bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish modelining kontseptual asoslarini ishlab chiqish, professional ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishni ta‘minlaydigan simulyatsiya ta‘lim texnologiyalaridan foydalangan holda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning ilmiy yondashuvlarini asoslash, o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning mazmuni, vositalari va usullari haqidagi nazariy g‘oyalarni boyitish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini, kompetentlikka asoslangan yondashuvdan foydalangan holda o‘quv materiallari, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, tashkiliy faoliyatda foydalanish imkoniyatlarini belgilash, o‘quvchilar uchun maxsus kurslarni ishlab chiqishda, shuningdek turli

ishlab chiqarish sohalari xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida foydalanish mumkinligi bilan ifodalanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy etish.** Professional ta'lim muassasalarida simulyasion ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda kasbiy kompetentlikni shakllantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagicha joriy etildi:

kontekstli ta'lim nazariyasi asosida o'quv va kognitiv faoliyatni kvazi-professional muhitda kasbiy faoliyatga aylantirishda hamda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda muammoli topshiriqlar va muammoli vaziyatlarni mustaqil ravishda hal etishda konsentrizm tamoyilini qo'llash vositasida aniq vaziyatlarni imitatsiyasiga qaratilgan simulyasion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi asoslanganligiga oid tavsiyalardan "Dual ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish" (2023-2025 yy.) mavzusidagi innovatsion loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 13-oktyabrdagi 02/17-2951-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyalar o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga yordam bergan;

kasbiy muhitni imitatsiya qilish sharoitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning yaxlitligi va sifatini ta'minlaydigan o'quv-simulyasion ta'lim muhitini kasbiy muammolar echimini topishda amaliy yo'nalganlikka ustuvorlik berish asosida yaratish orqali simulyasion ta'lim texnologiyasini samarali amalga oshirishda tizimli, faoliyatga asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar va tashkiliy pedagogik sharoitlar aniqlashtirilganligiga oid takliflar "Dual ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish" (2023-2025 yy.) mavzusidagi innovatsion loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 13-oktyabrdagi 02/17-2951-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyalar o'quvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga yordam bergan;

kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonining tarkibiy funksional modeli "Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi" fani mazmuniga atrof-muhit muammolari, texnogen ofatlar, texnogen falokatlarni bartaraf etish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini o'qitish mazmuni, vaqt taqsimoti va natijadorlik omillari asosida ishlab chiqish orqali singdirish, korxonalaridagi baxsiz hodisalar, o'zi va boshqalar uchun xavfsiz ish sharoitlarini yaratishga o'rgatishda kvazi professional ta'lim muhitini kiritish orqali takomillashtirilganligi hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish hamda kompetensiyalarni baholash metodikasi motivatsion-maqсадli, kognitiv, faoliyatga asoslangan va reflektiv baholash kabi tarkibiy qismlarini professional ta'limda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olish darajasiga ko'ra belgilash hamda Case method, Fabula, Mind map innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayonida samarali qo'llash asosida takomillashtirilganligiga oid takliflar "Qurilish sohasida inson salomatligi va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar" o'quv qo'llanma mazmuniga kiritilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 13-oktyabrdagi 02/17-2951-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyalar o'quvchilarda texnika

xavfsizligiga rioya etish bo'yicha ko'nikmalarni hamda ekstremal ko'nikmalarni shakllantirishga yordam bergan.

**Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokama qilindi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnalda) e'lon qilindi hamda O'zbekiston Respublikasi davlat intellektual mulk agentligidan dasturiy ta'minot uchun 1 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 134 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustivor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganganlik darajalari tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslanib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida kompetentlikka asoslangan yondashuv nazariyasi va amaliyotini tahlil qilish asosida professional ta'limda simulyatsion ta'lim texnologiyalarining mazmuni va tarkibiga aniqlik kiritildi, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini shakllantirishga hissa qo'shadigan simulyatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi A.L.Verbitskiyning o'quv-kognitiv faoliyatni kvazi-professional orqali professionalga simulyatsion sharoitlarni yaratish orqali transformatsiya qilish nuqtayi nazaridan kontekstual yondashuv nazariyasi bo'yicha asoslandi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlar va faol o'qitish usullaridan foydalanish xususiyatlarini tavsiflagan olimlarning (N.N.Azizxo'jayeva, Sh.Abdullayeva, A.A.Verbitskiy, V.L.Zagvyazinskiy, D.L.Kaetatse, A.M.Novikov, V.L.Platov va boshqalar) tadqiqotlarini tahlil qilish, amalga oshirishning tarixiy jarayonini kuzatish va professional ta'lim tizimida simulyatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatining muhim qismi profilaktika tadbirlarini tashkil etish, mijoz va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun xavfsiz muhitni yaratishdir. Kasbiy faoliyatning keng doirasi bo'lajak mutaxassisning

kasbiy kompetentligini shakllantirishni talab qiladi, bu bo'lajak mutaxassisning professional faoliyatida amalga oshiriladigan muhim shaxsiy fazilatlarini – umumiy va kasbiy, kommunikativ va tashkiliy, motivatsion, maqsadga yo'naltirilgan va refleksiv, baholash, deontologik va psixologik, axborot-tahliliy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak mutaxassisni tayyorlash sohasidagi zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotlarning asosiy yo'nalishlarida (A.A.Verbitskiy, V.V.Podinovskiy, V.I.Ribalskiy va E.A.Lshvinenko) mutaxassislarning kasbiy kompetentligini samarali rivojlantirish jarayonida simulyatsion ta'lim texnologiyalarini tanlash zarurati asoslab beriladi. Ularni amaliyotga joriy etish kompleks shaklida, ya'ni: uyinsiz uslublar (vaziyatli muammolarni hal etish, muayyan vaziyatlarni tahlil qilish), vazifa va vaziyatlarni modellashtirish, keys-uslub, mashqlar-harakatlar bo'yicha ko'rsatmalar (algoritm, standart bo'yicha) amalga oshiriladi. Ushbu uslublar asosidagi muammoli vaziyat bo'lajak mutaxassisning idrok etish qobiliyatini faollashtirish, tahlil qilish va tanqidiy fikrlash, o'z nuqtayi nazarini ifoda eta bilish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali professional faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan umumiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi; o'yin texnologiyalari (trenajyorlarda harakatlarni imitatsiya qilish, mashg'ulotlarda vaziyatlar, rolli o'yinlar, tashkiliy va faol o'yinlar, amaliy o'yinlarni o'ynash, rollarni bajarish orqali tajriba orttirish, moderatsiya qilish) ajdodlar tajribasiga asoslangan ko'nikmalarni egallash, kasbiy mahorat va malakali harakatlarni rivojlantirish, muayyan rollarni o'ynash, simulyatsion sharoitlarda professional faoliyatga taqlid qilishning samarali uslubi hisoblanadi.

Bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonini o'rganishda "kompetensiya", "kompetentlik", "kasbiy kompetentlik" tushunchalariga aniqlik kiritish kerak.

"Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalariga turli yondashuvlarni o'rganish va tahlil qilish ularning bir ma'noli tushunchasi keng namoyon bo'lmagan degan xulosaga kelishga imkon beradi.

Turli xil yondashuvlarni hisobga olgan holda, qayd etish lozimki, "kompetensiya" deganda "bilim, ko'nikma, amaliy tajriba ko'nikmalari va shaxsning kasbiy jihatdan muhim xususiyatlarini keyingi kasbiy faoliyatda qo'llash qobiliyati" tushuniladi; shu bilan birga kasbiy va kasbiy bo'lmagan sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat uchun zarur bo'lgan umumiy kompetensiyalar, kasbiy faoliyatda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalar aniqlanadi. Biz "kompetentlik"ni muayyan shaxs tomonidan kompetensiyalarni egallash natijasi deb hisoblaymiz.

Pedagogik tadqiqotlarda "bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligi" tushunchasi professional ta'lim islohotining zamonaviy talablari nuqtayi nazaridan ko'p funksiyali faoliyatning integral xarakteristikasi, mutaxassisning kasbiy mahorati va shaxsiy fazilatlarini ko'rsatkichi sifatida belgilanadi (S.G.Vasileva); axborot qobiliyatlariga ega shaxsning sifati (M.B. Urazova, 2005); gnoseologik,

praksiologik va akseologik tarkibiy qismlarning birligi, unga kasbiy faoliyatda muhim bo‘lgan muammolarni hal qilish qobiliyatini beradi (J.V. Komarova).

Bizning tadqiqotimiz doirasida kasbiy faoliyatni amalga oshirishda rivojlangan umumiy va kasbiy kompetentlik to‘plamini amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyati bilan tavsiflangan shaxsning ajralmas sifati tarzida talqin qilinadigan “bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligi” o‘rganildi.

Biz N.A.Muslimov, A.A.Quysinov, M.B.Urazova, V.A.Slastenin va boshqa olimlarning kasbiy kompetentlikning tarkibiy mazmuni masalalariga oid tadqiqotlariga asoslangan va bo‘lajak mutaxassisning professional faoliyatini hisobga olgan holda bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligining tarkibiy qismlarini aniqladik: **motivatsion-maqсадli** (professional faoliyatga tayyorlash muhimligini anglash, kasbga yo‘naltirilganlik, shaxsiy tashabbus va kasbiy o‘shish, umumiy va kasbiy kompetensiyalarni muhim kasbiy shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va takomillashtirish orqali kelajakdagi kasbiy faoliyatga qiziqish); **kognitiv** (kelajakdagi professional faoliyatni amalga oshirish, o‘quv-kognitiv faoliyatni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish, o‘quv materialini tushunish, axborotni tushunish, tahlil qilish, umumlashtirish, o‘zgartirish); **faoliyatga asoslangan** (gnostik, konstruktiv, operatsiyaviy va tashkiliy ko‘nikmalar), **refleksiv-baholash** (o‘z faoliyati natijalariga baholovchi munosabat, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, kelajakdagi kasbiy faoliyatda o‘zini o‘zi takomillashtirish).

Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligining barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot jarayonida imitatsiyaviy o‘yin usullaridan foydalangan holda simulyatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quv-kognitiv faoliyatni kvazi-professional faoliyatga aylantirishga yordam berishi aniqlandi (1-rasm). Ta’limda simulyatsion texnologiyadan foydalanish kelajakdagi mutaxassis faoliyatining haqiqiy kasbiy vaziyatlarini, mijozlar va hamkasblar bilan munosabatlar jarayonlarini, o‘zini o‘zi anglash, bo‘lajak mutaxassisning umumiy va kasbiy kompetensiyalari, kasbiy muhim fazilatlarini shakllantirishga yordam beradigan yaxlit faoliyat usuli konturlarini yaratishga imkon beradi.

Birinchi bobning 1.3-paragrafida bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida simulyatsion ta’lim texnologiyasini amalga oshirishning nazariy asoslari tavsiflanadi, bu yerda maxsus-professional fanlarni o‘rganishning uch bosqichi ko‘rsatib o‘tilgan:

– birinchi bosqich – o‘yindan tashqari noo‘yin imitatsiyaviy uslublarni bosqichma-bosqich qo‘llashni nazarda tutadigan **o‘quv-kognitiv** (odatiy va vaziyatli muammolarni hal qilish va mustaqil ravishda loyihalash usuli, aniq vaziyatlarni tahlil qilish, uzluksizlik va izchillik tamoyillarini hisobga olgan holda standartlarga muvofiq, imitatsiyaviy mashqlar va harakatlar va boshqalar). Shakllangan nazariy kasbiy bilimlar asosida umumiy kasbiy kompetensiyalar o‘zlashtiriladi, ular o‘quv-kognitiv faoliyatni shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi;

ikkinchi bosqich – **simulyatsion**, u imitatsiyaviy uyinsiz va o‘yinli ta’lim usublari kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi (trenajyorlarda imitatsiya qilish,

“sahnalashtirilgan” vaziyatlarni ijro etish, rolli o‘yinlar, tashkiliy va faol o‘yinlar). Shu bilan birga bo‘lajak mutaxassis oddiy sog‘liqni saqlash xavfsizligi xizmatlarini bajarish bo‘yicha kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, amaliy faoliyat uchun zarur bo‘lgan umumiy va professional malakalarni rivojlantiradi va takomillashtiradi. Mashg‘ulotlar kasbiy muhit uchun sharoit yaratish maqsadida jihozlangan laboratoriyalarda o‘tkaziladi, bu yerda kvazi-professional faoliyatni o‘zlashtirish amalga oshiriladi;


– uchinchi bosqich – **o‘quv-amaliy** bo‘lib, u ta‘lim va ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish jarayonida ro‘yobga chiqariladi. Bo‘lajak mutaxassislarning umumiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish kasbiy mahoratni o‘zlashtirishda simulyatsion ta‘lim texnologiyalariga asos bo‘lib xizmat qiladigan o‘yin o‘qitish usullaridan (rol o‘ynash, moderatsiya (konsilium), amaliy o‘yin) kompleks foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Professional faoliyatni transformatsiya qilishning yuqorida qayd etilgan bosqichlari qat‘iy ketma-ketlikda amalga oshiriladi va qo‘llaniladigan simulyatsion ta‘lim texnologiyasi esa kasbiy kompetentlikni samarali shakllantirish jarayonida ularni ta‘lim tizimiga tatbiq etishda uzluksizlik va uslublarni murakkablashtirish, tizimlilik tamoyillariga rioya qilgan holda bajariladi. Ta‘limning konsentrikligi prinsipi ham alohida belgilanadi, bu o‘quv materialini nisbatan yopiq sikllarda-konsentratda taqsimlashni nazarda tutadi.

Diisertatsiyaning **“Simulyatsion ta‘lim texnologiyalari orqali bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida simulyatsion ta‘lim texnologiyalarini joriy etish samaradorligining quyidagi tashkiliy-pedagogik shartlari ko‘rib chiqilgan:

*birinchi*, bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatni imitatsiya qiluvchi sharoitlarda amaliy faoliyatga tayyorlashning yaxlitligi va sifatini ta‘minlaydigan *o‘quv-simulyatsion ta‘lim muhitini yaratish*. Simulyatsion ta‘lim muhitining roli bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida ustuvor ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan, chunki amaliy tajriba ko‘nikmalarini o‘zlashtirish real sharoitlarga yaqin sharoitlarga amalga oshiriladi;

*ikkinchi*, *tashkiliy-pedagogik sharoit* – bu o‘qituvchilarning ta‘limni imitatsiyaviy usullari majmuasini amalga oshirishga tayyorligi (simulyatsion ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib, pedagogik mahorat maktablari yig‘ilishlarini tashkil etish va o‘tkazish, o‘qituvchilarga darslarning uslubiy dasturlarini loyihalashda uslubiy yordam ko‘rsatish).



**1-rasm. Bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda simulyatsion ta'lim texnologiyasining mazmuni**

Professor-o'qituvchilarning ta'limning simulyatsion texnologiyalarini joriy etish va qo'llashga tayyorgarligi, biz ustuvor vazifa sifatida belgilagan muhim tashkiliy-pedagogik shartlardan biridir, zero o'qituvchilarning malaka darajasi yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, ta'limning simulyatsion texnologiyalarini

joriy etish va qo'llash zarur darajada samarali bo'lmaydi, kasbiy kompetentlikni shakllantirish ko'rsatkichlari kutilganidan past bo'ladi;

*uchinchi, tashkiliy-pedagogik shart* – o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish va qo'llash (o'quv rejasi: modulning ish dasturi, o'quv amaliyoti dasturi va metodik hujjatlar: o'qituvchi uchun darslarni uslubiy ishlab chiqish, oquvchilar uchun auditoriya va auditoriyadan tashqari (mustaqil) mashg'ulotlar tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar), o'quvchilar uchun metodik qo'llanmalar. O'rganilayotgan kasbiy modul yoki fanlararo kurs bo'yicha qo'shimcha hujjatlar bo'lgan o'quv-uslubiy yordamning mavjudligi bo'lajak mutaxassisning amaliy kompetentligini shakllantirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi uzviylik vazifasini bajaradi va ta'lim jarayonini sifatli darajada uslubiy ta'minlash kasbiy kompetentlik saviyasi ko'rsatkichlarining oshishiga ham ta'sir qiladi;

*to'rtinchi, tashkiliy-pedagogik shart* – bo'lajak mutaxassisning professional kompetentligini shakllantirish darajasini baholash uchun nazorat va baholash vositalari bilan ifodalanuvchi *diagnostika vositalarini ishlab chiqish* (situatsiyaviy vazifalar, tahlil qilish uchun muayyan vaziyatlar, test topshiriqlari, manipulyatsiyalar hisobini yuritish jurnali, portfolio – keys , o'z-o'zini baholash modulni o'rganish jarayonida o'zlashtirilgan kompetensiyalarni baholash varag'i) bilan ifodalanadigan bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish darajasini baholash uchun diagnostika vositalarini ishlab chiqish.

Professional ta'lim amaliyotida shakllangan kompetentlik sifatini nazorat qilish muhim o'rin tutadi va ta'lim natijalarini (kompetentliklarini) o'lchash va baholash muammosi eng muhim masalalardan biridir. Modulni o'zlashtirish sifatini baholash bilimlarni doimiy monitoring qilish va oraliq attestatsiyalashni o'z ichiga oladi. Buning uchun nazorat va baholash vositalarini (NBV) yaratish kerak, ular yordamida faoliyat mahsuli sifatidagi kompetensiyalarning shakllanishini baholash mumkin bo'ladi. NBVni yaratish vaqt va o'qituvchilarning yuqori darajadagi professional malakasini talab qiladi. NBV turli nazorat turlari bo'yicha savollarni, amaliy manipulyatsiyalar ro'yxatini, lug'atni, test topshiriqlari to'plamini, standart javoblar bilan vaziyatli topshiriqlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, A.A. Verbitskiyning kontekstual yondashuv nazariyasi asosida amalga oshirilgan bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirishda simulyatsion ta'lim texnologiyasini bosqichma-bosqich qo'llashning yaxlit jarayonidir. Bu yerda ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati muammoli vaziyatlarni hal qilish va rollar o'ynash sharoitida o'quv-kognitiv faoliyatni kvazi-professional orqali kasbiyga aylantirish orqali hal qilish tizimi sifatida modellashirilgan.

Ushbu bob doirasida ishlab chiqilgan mezonlar asosida amaliy kompetentlikning motivatsion-maqsadli, kognitiv, amaliy, reflektiv-baholash komponentlarini shakllantirishning daraja xususiyatlari alohida ko'rsatib o'tildi va aniqlandi (yuqori, past, o'rtacha).

**1-daraja – past.** Bo'lajak mutaxassis amaliy faoliyat haqida umumiy tasavvur, faoliyatni o'zlashtirish uchun beqaror motivlar; umumiy va kasbiy kompetensiyalarning (kasbiy bilimlarning) shakllanganligi yuzaki xarakterga ega,

o'quv-kognitiv faoliyat qobiliyatlari (tahlil, sintez, umumlashtirish, talqin qilish) zaif namoyon bo'ladi; amaliy tajriba ko'nikmalarini yetarli darajada o'zlashtirmaslik, harakatlarni qisman bajarish, manipulyatsiyalarni bajarishda kuchli darajada hayajonlanish, mustaqil amaliy faoliyatni tashkil eta olmaslik; refleksiv qobiliyatlar kam rivojlanganligi, amaliy faoliyatdagi rolga aniq baho bera olish, o'zini o'zi tahlil qilish, baholash, nazorat qilish va komillikka intilish hissi kuchsiz.

**2-daraja – o'rta (produktiv).** Mutaxassis o'z kelajagi uchun kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning muhim ekanligini anglashi, tizimli kasbiy bilimlar mavjud ekani va ularga kuchli qiziqish namoyon bo'lishi; tahlil qilish, olingan bilimlarni umumlashtirish, aniq vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini namoyon etadi, o'z nuqtayi nazarini dalillar bilan asoslab himoya qiladi; amaliy tajriba ko'nikmalarini yaxshi o'zlashtiradi, harakatlar maqsadli bo'ladi, amaliy faoliyatni mustaqil tashkil etish va amalga oshirish, suhbat va muloqot qilish qobiliyatiga ega; amaliy faoliyatdagi rol ortiqcha baholanadi, umumiy va kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirish zarurligini anglaydi, o'z-o'zini tahlil qilish, boshqarish va komillikka intilish xususiyatlari mavjud.

**3-daraja – yuqori (reproduktiv).** Bo'lajak mutaxassisning amaliy faoliyat uchun kasbiy tayyorgarlik muhimligini chuqur anglash, faoliyatga bo'lgan motivatsiyasi kuchli va unga qat'iy qiziqish bor; umumiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish darajasi yuqori, kasbiy bilim va ko'nikmalar o'quv-ishlab chiqarish vaziyatlarini hal qilishda to'liq qo'llaniladi, muloqotga oson kirishadi, munozaralarda faol qatnashadi va o'z nuqtayi nazarini dalillar bilan himoya qiladi; kasbiy faoliyatga oson jalb etiladi, vaziyatlarni teran anglashda aniq, puxta va tezkor harakatlarni amalga oshiradi, vazifalarni bajarishga ijodiy yondashadi; amaliy faoliyatdagi rolini adekvat baholaydi, introspeksiya, o'zini o'zi boshqarish va komillikka intilishga aniq yo'naltirilganlik mavjud. O'z navbatida, simulyatsion ta'lim texnologiyasini amalga oshirish samaradorligiga faqat mazmuni, usullari va shakllari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan maxsus ta'lim vositalari majmuasini o'z ichiga olgan axborot-fan muhiti asosida erishish mumkin. 0.51.05.00 – Yer usti transporti tizimlari va ularning ishlashi (transport turlari bo'yicha), 3.51.05.01 – Avtomobil ta'mirlash slesari) yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda **“mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi”** fanini o'rganishga e'tiborni yuqori darajada oshirish kerak, negaki, ular mehnatni muhofaza qilish xizmatlarini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi shikastlanish sabablarini bartaraf etish, fan va texnika yutuqlarini joriy etish asosida mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni takomillashtirish, mehnat madaniyatini yuksaltirish, baxtsiz hodisalarning oldini olish hamda sanitariya tadbirlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishga qaratilgan tashkiliy, texnik va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish qobiliyatiga ega. Shu ma'noda **“mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi”** fanini o'qitishning o'quv jarayonida mehnat madaniyati, baxtsiz hodisalarning oldini olishga qaratilgan tashkiliy, texnik va boshqa tadbirlar sezilarli darajada oshadi. Shunday qilib, mazkur fanning mohiyati va maqsadi, uni muammoni hal qilishda foydalanish istiqbollari qaratilgan.

Shu ma'noda dissertatsiyada ushbu fan bo'yicha o'quv dasturi, ya'ni sillbusi bo'lajak mutaxassisda mehnat madaniyati va uning xavfsizligini shakllantirishdagi imkoniyatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Tahlillar natijasida mazkur fan mazmunini mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi haqidagi bilimlar bilan kengaytirish, sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishning yagona, to'g'ri yechimini aniqlash va ishlab chiqarishda foydalanishni tavsiya etish orqali to'ldirish zarurligi aniqlandi.

Uslubiy va nazariy tahlil, shuningdek kasbiy kompetentlikni shakllantirishda simulyatsion ta'lim texnologiyasini amalga oshirishning pedagogik shartlarini aniqlash mazkur ta'lim texnologiyasi orqali bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uslubiyati modelini ishlab chiqishga imkon berdi. Ishlab chiqilgan model to'rtta blokdan iborat (2-rasm):

**I. Maqsadli blok** bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish uchun rivojlanish modelining maqsadini belgilaydi, bu esa, o'z navbatida, kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismlari darajasini oshirishga qaratilgan.

**II.** Bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirishni o'z ichiga olgan **mazmunli blok**: shaxsiy faoliyat, yondashuvlar. Mazmunli blok, shuningdek maxsus tamoyillarni o'z ichiga oladi: simulyatsiyaning interaktivligi tamoyili, **izchillik, qo'llaniladigan usullarning murakkabligi, uzluksizlik, tizimlilik**, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan va o'rganilayotgan hodisalarga qadrlil munosabat.

Manzunli blokiga yuqorida qayd etib o'tilgan mutaxassislar tayyorlash sohasidagi **mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi** fani kiradi: 0.51.05.00 – Yer usti transporti tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (transport turlari bo'yicha), 3.51.05.01 – Avtomobil ta'mirlash slesari mutaxassisligi.

Ushbu fanlar doirasida mehnatni muhofaza qilish xizmatlarini takomillashtirish, ishlab chiqarishdagi shikastlanish sabablarini bartaraf etish, fan va texnika yutuqlarini joriy etish asosida mehnatni muhofaza qilishni takomillashtirish, mehnat madaniyatini yuksaltirish, baxtsiz hodisalarning oldini olishga qaratilgan tashkiliy-texnik va boshqa chora-tadbirlar kabi jihatlar ham ko'rib chiqiladi.

**III. Protessual blokda** biz mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi fanini o'rganayotgan bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida o'z samaradorligini ko'rsatgan ta'lim texnologiyalarini kiritdik: simulyatsion, u noo'yin va o'yinli o'qitish usullari o'z ichiga imitatsiyasining kombinatsiyasini (trenajyorlarda faoliyatini imitatsiya qilish, vaziyatlarni "sahnalashtirish", rolli o'yinlar, tashkiliy va faoliyatli o'yinlar) oladi; bo'lajak mutaxassisning fikrlash qobiliyatini faollashtirish, tahliliy va tanqidiy fikrlash, o'z nuqtayi nazarini ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun A.A.Verbitskiyning kontekstli texnologiyasidan foydalanildi; o'yin texnologiyalari (trenajyorda faoliyat imitatsiyasi, vaziyatlarni o'ynash, rolli, tashkiliy-faoliyatli, amaliy o'yinlari, rolli o'yin bilan tajriba orttirish, moderatsiya) amaliy tajriba ko'nikmalarini egallash, kasbiy mahorat va malakali

harakatlarni rivojlantirish, o‘yin o‘ynashning samarali usullari sifatida simulyatsion sharoitida muayyan rollar va kasbiy faoliyatni imitatsiya qilish; sensitiv trening (mehnat xavfsizligi va mehnat madaniyatini tushunish bo‘yicha trening). Sensitiv trening texnologiyasining o‘ziga xosligi shundaki, u his-tuyg‘ular va hissiyotlarni aktuallashtirishga, aks ettirishga asoslanadi. Bu bunday treningni batafsil tavsiflashga imkon bermaydi. Sensitivlik treningi ko‘rinmas ip orqali ijtimoiy o‘zaro ta’sir qilish usullaridan o‘tadi.

Shuningdek, protsessual blok ichiga biz bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik shartlarni kiritdik: bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatni imitatsiya qiluvchi sharoitlarda amaliy faoliyatga tayyorlashning yaxlitligi va sifatini ta’minlaydigan *simulyatsion o‘quv muhitini yaratish, o‘qituvchilarning imitatsiyaviy ta’lim usullari majmuasini amalga oshirishga tayyorligi* (simulyatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga xos masalalarni yoritish bilan pedagogik mahorat maktablari yig‘ilishlarini tashkil etish va o‘tkazish, o‘qituvchilarga darslar uchun uslubiy ishlanmalarni loyihalashda uslubiy yordam ko‘rsatish); *o‘quv-metodik ta’minotni* ishlab chiqish va qo‘llash (o‘quv rejasi: modulning ish dasturi, o‘quv amaliyoti dasturi va uslubiy hujjatlar: o‘qituvchi uchun mashg‘ulotlarning uslubiy ishlanmasi, auditoriya va auditoriyadan tashqari (mustaqil) ishlarni tashkil etish bo‘yicha o‘quvchilar uchun amaliy tavsiyalar, o‘quvchilar uchun uslubiy qo‘llanmalar; bo‘lajak mutaxassisning professional kompetensiyasini shakllantirish darajasini baholash uchun nazorat va baholash vositalari bilan ifodalanuvchi *diagnostik vositalarni ishlab chiqish* (situatsion vazifalar, tahlil qilish uchun aniq vaziyatlar, test topshiriqlari, manipulyatsiyalar jurnali, portfolio (keys), modulni o‘rganish jarayonida o‘zlashtirilgan o‘zini va kompetensiyalarini baholash varag‘i), shuningdek o‘qitish shakllari: auditoriya va darsdan tashqari (“Mehnat madaniyati” to‘garagi), o‘quvchilarning mustaqil ishi.

**IV blok – baholash**, u uch bosqichni o‘z ichiga oladi: *birinchi bosqich* – uzluksizlik va izchillik tamoyillari hisobga olingan noo‘yin imitatsiyaviy ta’lim usullarini bosqichma-bosqich qo‘llashni nazarda tutuvchi o‘quv-kognitiv (tipik va vaziyatli muammolarni hal qilish va mustaqil ravishda loyihalash usuli, aniq vaziyatlarni tahlil qilish, imitatsiya standartlariga muvofiq mashqlar va harakatlar va hokazo); *ikkinchi bosqich* – simulyatsion, u ta’limning imitatsiyaviy noo‘yin va o‘yinli usullari birikmasini o‘z ichiga oladi (trenajyorlarda faoliyatni imitatsiya qilish, vaziyatni “sahnalashtirish”, rolli o‘yinlar, tashkiliy-faoliyatli o‘yinlar). Shu bilan birga bo‘lajak mutaxassis sog‘liqni saqlash xavfsizligi bilan bog‘liq oddiy xizmatlarni bajarish bo‘yicha kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, amaliy faoliyat uchun zarur bo‘lgan umumiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi va takomillashtiradi. Mashg‘ulotlar kasbiy muhit uchun sharoit yaratish uchun jihozlangan laboratoriyalarda o‘tkaziladi, bu yerda kvazi-professional faoliyatni o‘zlashtirish amalga oshiriladi; *uchinchi bosqich* – o‘quv-amaliy bo‘lib, o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish jarayonida amalga oshiriladi.

Bo‘lajak mutaxassislarning umumiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish kasbiy mahoratni o‘zlashtirishda simulyatsion

